

Maktablar qanday paydo bo'lgan?



Maktablar qadim zamonda, odamlar ilm olish va bilim ulashish muhimligini tushunib yetgan davrda vujudga kelgan. Avval bolalar uyda ta'lim olishgan. Ota-onalar o'z farzandlariga o'qish va yozishni o'rgatishgan, qiziqarli ertaklar aytib berishgan.



O'rta asrlarda maktablar faoliyati ancha tartibga solindi. Bu yerda endi nafaqat yozuv va matematika, balki astronomiya va hattoki musiqa fanlari o'rgatila boshlandi.



Bugungi kunda maktab kerakli texnika va uskunalar bilan jihozlangan, yorug' va chiroyli sinfxonalarga, qulay partalarga, yashil hududlar va sport maydonchalariga ega bo'lgan zamonaviy o'quv dargohidir. U yerda har bir o'quvchi o'zi uchun qiziqarli bo'lgan mashg'ulotni topishi, yangi bilim olishi va o'z vaqtini unumli o'tkazishi mumkin.



Salom, maktab!

Muhiddin Omon



Topishmoqning javobini toping.

Uyimiz nurdan, o'rganish bizdan, o'rgatish sizdan.



O'qing.

Salom, maktab, jon maktab,
Bilimlarga kon maktab.
Aql-u odob, tarbiya
Berguvchi makon maktab!

Ustozlarim mehribon,
"O'qi", derlar bearmon.
Sen istiqlof farzandi,
Kamolga yet, bolajon!

Sog'lom bo'l-u, polvon bo'l,
El-u yurtga posbon bo'l.
Bel olishsang maydonda,
Or-nomusi osmon bo'li!



Vatanning baxti uchun
Sarf aylagin bor kuching.
Olib elning duosin,
Ravo qil muddaosin*.

Bu tilakka labbay deb,
Javob beraman tayin.
Ma'rifat* ziyosidan
Ulg'ayaman kun sayin.

O'zbekiston nomini
Jahonga qilgum doston.
Chunki boshqa topilmas
Dunyoda bunday bo'ston*!



muddao – kishining dilidagi maqsadi, niyati
ma'rifat – kishilarning bilimini, madaniyatini
oshirishga qaratilgan faoliyat
bo'ston – gullab-yashnagan joy



1. She'rni o'qiyotganingizda ko'z oldingizga nimalar keldi?
2. She'rda maktabga qanday ta'rif berilgan?
3. Nima uchun maktabni **bilimlar koni** deb ataymiz?



She'rni yod oling.

